

EDGE HILL UNIVERSITETIDA TYUTORLIK TIZIMI XUSUSIYATLARI

O'rinova Nilufar Muhammadovna

FarDU professori, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Muxammadjonova Madinabonu Isroiljon qizi

FarDU Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tyutorlik faoliyatining xorijiy davlatlar ta'lim jarayonida tutgan o'rni, tyutorlik faoliyati shakli va tizimi, uning istiqbolli xususiyatlari borasida bir qator ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, ular "Edge Hill" universitetidagi shaxsiy tyutorlik tizimi misolida batafsil yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *tyutorlik faoliyati, xalqaro ta'lim, ta'lim usuli, sistema, rivojlanish, majburiyatlar, xizmatlar tarmog'i.*

Аннотация: *В настоящей статье представлен ряд сведений о роли репетиторства в образовательном процессе зарубежных стран, форме и системе репетиторства, его перспективных особенностях, которые подробно рассмотрены на примере системы персонального репетиторства в Университете Эдж-Хилл.*

Ключевые слова: *тьюторская деятельность, международное образование, метод обучения, система, развитие, обязательства, сеть услуг.*

Abstract: *The current article presents a number of information about the role of tutoring in the educational process of foreign countries, the formation and system of tutoring, and its promising features, which are detailed on the example of the personal tutoring system at Edge Hill University.*

Keywords: *tutoring activity, international education, educational method, system, development, obligations, network of services.*

Ma'lumki, tyutorlik eng qadimgi ta'lim usullaridan biridir. Qadimgi Yunonistonda, Aflotun va Suqrot davrida, badavlat kishilarning farzandlarigina fan arboblari va tarbiyachilar (tyutorlar) yordamida yakka tartibda yoki kichik guruhlarda ta'lim olganlar. O'rta asrlarga kelib ham ular tarbiyachilardan ta'lim olishda davom etishgan. Rasmiy ma'nodagi ta'lim muassasalari mavjud bo'la boshlagandan keyingina, dars berishni o'qituvchilar o'z zimmasiga olishdi, ammo bu o'quv jarayonida tyutorning rolini kamaytirishga sabab bo'lmadi. Avvallari faqat badavlat talabalarning tyutorlari bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda barcha talabalar uchun ko'plab ta'lim muassasalarida tyutorlik dasturlari keng yo'lga qo'yilgan. Tyutorlik universitet o'qitish jarayonining bir qismi bo'lib, u talabaning akademik muvaffaqiyatga erishishi va kasbiy maqsadlari strategiyasini o'rnatish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Yurtimizda ham tyutorlik sohasi taraqqiyotiga erishish uchun ko'plab islohotlar amalga oshirilib, ushbu maqsad yo'lida bir qancha dasturlar ishlab chiqilmoqda. Xorijiy davlatlar dasturlari va strategiyalari bilan tanishish va ularni tahlil qilish orqali mavjud

sohada yanada chuqurroq bilimlarni egallashimiz va tyutorlik faoliyati tizimini takomillashtirishimiz mumkin.

“Edge Hill universiteti”da shaxsiy tyutorlik tizimi.

Edge Hill universiteti 1885 yil Liverpoolda tashkil topgan. Bu universitet dastlab ayollarga ta’lim berishga mo’ljallangan kollej hisoblangan. Bu universitet tashkil topgan paytda bor yo’gi 41 ta ayol talabalar bo’lgan, hozirda esa uning 15,000 dan ziyod ta’lim oluvchilari mavjud. [9;3]

Edge Hill universiteti barcha talabalar uchun yuqori sifatli rahbarlik va qo’llabquvvatlov harakatlaridan foydalanishni asosiy maqsad qilib olgan. Ushbu maqsad talabalarga ta’lim xizmatlari orqali markaziy yordam ko’rsatish, professional xodimlar tomonidan o’qitish va baholash hamda shaxsiy tyutorlik tizimining o’rni va funktsiyalarini qo’llab-quvvatlashdan iborat.

Shaxsiy tyutorlar ham diniy ham dunyoviy masalalarda maslahat beruvchi va yo’l-yo’riq ko’rsatuvchi shaxs, bir so’z bilan aytganda, talabalarning ushbu masalalarni yechish “kaliti” hisoblanadilar.[4; 11] Ular talabalar uchun har bir fakultet ichidagi bo’limlar yoki sohalarda tashkil etilgan tizimdagi doimiy aloqa nuqtasidir.

“Edge Hill universiteti” talabalarning shaxsiy va akademik jihatdan rivojlanishiga imkon yaratuvchi puxta rejalashtirilgan va talabani doimiy nazorat qilib boradigan

“Shaxsiy tyutorlik tizimi”ni shakllantirdi.

Edge Hill universitetida tyutorlik tamoyillari

Shaxsiy tyutorlik tizimi talabalarni qo’llab-quvvatlash xizmatlari tarmog’ining asosiy elementi hisoblanib, u quyidagi tamoyillarga tayanadi:

1. Har bir talabani qobiliyatli va o’z ta’lim ehtiyojlariga ega shaxs sifatida hurmat qilish;
2. Har bir talabaning bilim olishi, rivojlanishi va muvaffaqiyatga erishishi uchun umumiy javobgarlikni zimmasiga olish;
3. Talabalarni akademik jamoaga jalb qilish va ularni mavjud ta’lim orqali qo’llabquvvatlash;
4. Imkoniyat, xilma-xillik va umumiylikni teng miqdorda tashkillash.

Universitetning har bir bo’limi shaxsiy tyutorlik tizimini mahalliy joriy etish maqsadida umumiy xodimlar va talabalar uchun qo’llanmalar bilan bir qatorda, tegishli hujjatlarni ham ishlab chiqaradi. Bu tartiblar talabalarning fikr-mulohazalari, tyutorlarning fikrlashlari va baholashlari bilan bog’liq holda ko’rib chiqiladi va yillik tahlillar olib boriladi. Barcha shaxsiy tyutorlar “Edge Hill”ning xodimi sifatida majburiy trening mashg’ulotlarini o’taydilar va universitet mavjud natijalar asosida xodimlarini ishga qabul qilish va ularni doimiy ravishda rivojlantirish jarayonlarini davom ettirish imkoniga ega bo’ladi. Brifinglar va kasbiy rivojlanishni qo’llab-quvvatlash harakatlari “xodimlarni rivojlantirish va malakasini oshirish” bo’linmalari tomonidan amalga tatbiq etiladi. [9; 6]

Fakultet ma’sullari shaxsiy tyutorlik tizimini yil davomida kuzatib boradi, baholaydi va talabalar hamda xodimlarning fikr-mulohazalari ustida tahlillar olib

boradi. Ushbu ma'lumotlar tizimli ravishda Edge Hill universiteti qo'mitasiga yetqizilib, keyingi yillarda tyutorlik tizimini takomillashtirish harakatlarini aniq rejalashtirib olishda foydalaniladi.

Edge Hill universitetida shaxsiy tyutorlik tizimi amaliyot kodeksi

Shaxsiy tyutorlik amaliyoti kodeksi talabaning ham shaxsiy tyutorning ham foydasiga xizmat qiladigan ma'lum tizimlarni o'zida jamlagan. Muvaffaqiyatli shaxsiy tyutorlik tizimi talaba va tyutor o'rtasidagi umumiy mas'uliyatga asoslanadi va kafedra, fakultet, universitet hamda boshqarma tomonidan doimiy ravishda qo'llab-quvvatlanadi.

Shaxsiy tyutorning roli bu borada muhim ahamiyatga ega bo'lib, u universitet o'quv yillari davomida talabalar uchun "barqaror ma'lumot nuqtasi" va "jonli tajriba" bo'lib xizmat qiladi. Qolaversa, oliy ta'limga muvaffaqiyatli qabul qilinish, o'quv dasturini to'liq tamomlash va talabalarni o'z ish o'rnini topishda ham tyutorning o'рни beqiyosdir.

Mazkur kodeksda shaxsiy tyutorning roli - doimiy yordam ko'rsatadigan, inklyuziv shaklda bo'lishi ko'zda tutilgan. Tyutor diniy va dunyoviy masalalar bilan bog'liq holatlarda to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi va yo'naltiruvchi yagona nuqta sifatida harakat qilishi va universitet jamoasi bilan uzviy aloqa o'rnatishi ham belgilab o'tilgan.

Buning uchun quyidagilar talab qilinadi:

a) shaxsiy tyutorlik tizimi va o'рни talabalar dastur qo'llanmasida aniq belgilanadi;

b) talabalar ham tyutorlar ham bir birlari bilan samarali muloqot o'rnatish jarayoni mas'uliyatini his etishlari talab qilinadi;

c) shaxsiy tyutor o'quv va qo'llab-quvvatlash masalalari bo'yicha umumiy rahbarlikni o'z zimmasiga oladi;

d) birinchi navbatda talabaga shaxsiy tyutorining ismi va aloqa qilish uchun tyutor ma'lumotlari beriladi. Hafta davomida o'z tyutori bilan (norasmiy) uchrashish imkoniyati bilan ta'minlanadi;

e) shaxsiy tyutor yo'q bo'lsa, mavjud bo'limlar muqobil aloqa nuqtalari va kerakli ma'lumotlarni talabaga taqdim etishlari kerak;

f) Shaxsiy tyutorlar va talaba(lar) bilan 1-kursda kamida beshta, 2 va 3-kursda kamida ikkita "uchrashuvlar jadvali" tuziladi. Ular o'quv yili bo'ylab taqsimlanadi. Ishtirok etish va qatnashish talabaning zimmasida bo'lib, videoyozuvlar va yig'ilgan ma'lumotlar saqlanadi;

g) alohida holatlarda, agar talaba yoki shaxsiy tyutor o'zgartirishlar taklif qilsa, bu bilan maxsus bo'lim belgilangan tartibda shug'ullanadi.

Shaxsiy tyutorning roli va majburiyatlari Talabalar diqqatiga:

- shaxsiy tyutorning ismi va aloqa uchun ma'lumotlari qayd etilganligiga ishonch hosil qiling;

- shaxsiy tyutoringiz bilan muntazam aloqada bo'ling va barcha rejalashtirilgan uchrashuvlarda qatnashing;

- kasal bo'lib qolgan va universitetga kelmagan taqdiringizda shaxsiy tyutoringizni vaziyatdan xabardor qiling;

- akademik yoki shaxsiy-tibbiy muammolar mavjud bo'lsa, shaxsiy tyutoringizga xabar bering, yo'qsa bu holatlar davomatga yoki akademik o'sishga ta'sir ko'rsatadi;

- agar imtihonlarga kasallik sababli kela olmagan bo'lsangiz va bu sizning baho olish jarayoningizga ta'sir qilgan bo'lsa darhol shaxsiy tyutoringizga murojaat qiling. [2; 14]

Shaxsiy tyutorning roli:

- akademik maslahat berish, yo'l-yo'riq ko'rsatish va talabalarni ilmiy rivojlanishi uchun ularni qo'llab-quvvatlash va yordam berish;

- talabalarni kerakli yo'nalishlarga yo'naltirish;

- faoliyatni PDP tizimi bilan bog'langan bo'lishi va bu shaxsiy rivojlanishni osonlashtirishi uchun shaxsiy tyutorlikni bevosita amalga oshirish;

- universitetda talabalarining rivojlanishiga tegishli mavjud jarayonlar va protseduralar, xizmatlar bilan tanishish;

- talabaning huquqini hurmat qilish, maxfiylik siyosatiga amal qilish,

- ma'lumotlarni faqat talabaning roziligi bilan oshkor qilish;

- kerak bo'lganda havolalarni yozish;

- dasturning dastlabki ikki haftasida talabalar bilan muntazam uchrashish;

- aloqa ma'lumotlarini taqdim etish (elektron pochta manzil, kengaytma raqami, mavjudligi).

Shaxsiy tyutorning majburiyatlari:

- talabalar bilan rasmiy uchrashuvlar jadvali tuzish;

- rasmiy uchrashuvlar qaydini yuritish;

- akademik yordam ko'rsatish;

- shaxsiy tyutorlik faoliyatini rivojlantirish bilan shug'ullanish, treninglarda ishtirok etish;

- talabalarining rivojlanish jarayonini kuzatib borish.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, barcha kasblar qatori tyutorlikning ham ta'lim tizimida katta va o'ziga xos ahamiyati mavjud. Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimida tyutorlik faoliyati tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish va yanada mustahkamlash borasida mavjud keltirilgan xorijiy tajribalardan foydalanish katta samara beradi. Bu orqali universitetlarimiz kelgusida salohiyatli kadrlar tayyorlash imkoniga ega bo'ladi. Ayniqsa, xalqaro tajribadan kelib chiqib, talabalar uchun shaxsiy tyutorlar tayinlash, "Bir talaba – bir tyutor" tizimini joriy etish bu maqsadga erishishni osonlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Ally M., "Tutoring skills for distance education", open Praxis , 1, 2000,

2. Brown, C. (2002). Simple and effective – teacher roles remain a powerful framework to embed within the practice of teaching. In d. Willis, J. Price, & N. 3.Davis (eds), proceedings of site 2002 - Society for information technology and teacher education international conference, Nashville, tn
4. Halina Goetz., What tutoring is and what tutoring is not, 2012-2023 Chapman University Press
5. Lentell, H. (2003). The importance of the tutor in open and distance learning. In A. Tait, & R. Mills (eds.)
6. Mashile, O. (2012). Unisa tutor model. Report compiled for senate teaching and learning committee, March 2012. Pretoria: University of South Africa.
7. Mcann, G. W. (1994). The changing role of moderation in computer mediated conferencing.
8. Packham, G., Cramphorn, C., & Miller, c. (2001). Module development through peer-assisted student support: an initial evaluation. Mentoring and tutoring.
9. ‘The personal tutor system at Edge Hill University’, Edge Hill public university in Ormskirk, England Press.